



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№4/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 120 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afur Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif.....	12
Achilov Muzaffar Norquliyevich	
“4K” modeliga asoslangan ta'limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari	15
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi	
Oliy ta'lim muassasalari kafedrası faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi.....	18
Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari.....	24
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Urma zarbli cholg'ular turlari va ularda ijro etish usullari	27
Egamkulov Oybek Altmishevich	
Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli	31
Ergasheva Guzal Maxkambayevna	
Bo'lg'usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi.....	34
Ermatova Gulnoz Pirimovna	
Boshlang'ich ta'lim tarbiya fanida o'yin texnologiyalardan foydalanish metodikasi	37
Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo'nalishlari va usullari ...	41
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o'z-o'zini anglash darajasi.....	44
Mamaraimova Ra'no Usmanovna	
The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties	48
Narzulloyeva Dilfuza Bahriddin qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish	54
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni.....	56
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna	
Globalashuv jarayonida o'quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish.....	59
Siddikov Baxtiyor Saidkulovich	
4-sinf o'quvchilariga maqollar ma'nosini tushuntirish usullari	63
Suvonova Shohida Murodullo qizi	
Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari.....	69
Temirova Rushana Ravshan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirish mazmuni	73
Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehrbon Qahramon qizi	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari.....	76
Usmonova Zulfiya Iloxomovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi	79
Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna	
Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества	82
Дустова Ирода Шукрулло кизи	
Размышления о возникновении человеческих эмоций	86
Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна	
Проблемы регулирования терминов в языкознании.....	89
Курбанова Гузаль Абдурахимовна	



Педагогические основы формирования интереса дошкольников к изучению иностранного языка в игровой среде.....	93
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Механика fanining rivojlanish tarixi.....	97
Esanov Nuriddin Qurbonovich	
Эффективность использования личностно-ориентированной технологии обучения в учебном процессе.....	100
Намозова Манзура Муродовна	
О'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari	104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	109
Radjabova Gulnoza Bahromovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish usullari	113
Saffarova Mohidil Axmadovna	
Adabiy til va shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari	116
Qurbonova Asal O'tkirovna	



BOSHLANG'ICH TA'LIM TARBIYA FANIDA O'YIN TEXNOLOGILARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna

JDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti,
 pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining mazmun-mohiyati, o'yinli texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish usullari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tarbiya, o'yin texnologiyalari, pedagogik metodika, o'quv o'yinlari, didaktik o'yinlar, ta'lim jarayoni, interfaol metodlar, bolalar faoliyati, rivojlantiruvchi o'yinlar, ijodiy fikrlash, samarali o'qitish.

Abstract: This article discusses the content and essence of modern educational technologies in teaching the subject of education, as well as methods for the effective use of game technologies and interactive methods.

Key words: primary education, upbringing, game-based technologies, pedagogical methods, educational games, didactic games, learning process, interactive methods, children's activity, developmental games, creative thinking, effective teaching.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность современных образовательных технологий в преподавании дисциплины "Воспитание", методы эффективного использования игровых технологий и интерактивных методов.

Ключевые слова: начальное образование, воспитание, игровые технологии, педагогическая методика, учебные игры, дидактические игры, образовательный процесс, интерактивные методы, деятельность детей, развивающие игры, творческое мышление, эффективное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

So'nggi yillarda respublikamizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Respublika rahbariyati boshchiligidagi mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, zamon talabiga va jahon standartlariga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha ta'lim sohasida ham islohotlar olib borilmoqda.

Shu asnoda, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish maqsadida yetuk kadrlar tayyorlash ishini jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...Intellectual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q"¹, – deya ta'kidlagan edi. Zero, ta'lim tizimini ilg'or tajribalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida samarali tashkil etish orqali yoshlarni mustaqil fikrlovchi, tafakkuri keng, zukko, bilimli qilib tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 23-dekabr.

Boshlang'ich ta'lim keyingi ta'lim bosqichlarining poydevori hisoblanadi. Agar kichik yoshdagi o'quvchi eng oddiy tushunchalarni puxta o'zlashtirsa, yuqori sinflarda murakkab mavzular osongina o'rgana oladi. Har bir o'qituvchi o'quvchilarning bilim olishda yaxshi natijalar ko'rsatishidan manfaatdor. 7-10 yoshli bolalar quruq nazariyani o'rganishga qiziqishmaydi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda o'quv motivlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham, aksariyat o'qituvchilar boshlang'ich sinflarda darslarni yorqin va esda qolarli qilish uchun innovatsion texnologiyasidan foydalanadilar.

Innovatsion ta'lim muhitida boshlang'ich sinf tarbiya darslarini o'yinli, muammoli, hamkorlik ta'lim texnologiyalari asosida olib borish o'quvchilarning o'quv motivini shakllantirish, darsga qiziqishini oshirish orqali ularda bilim, ko'nikma, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga erishamiz.

"Innovatsiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib (in-ga, novus-yangi), ya'ni tarjimasida "yangilanish", "o'zlashtirish", "qandaydir yangilikni kiritish", "yangini joriy qilish", "yangilik kiritish". O'z navbatida "yangi" so'zi ushbu tushunchaning asosiy yadrosini tashkil etadi. Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Innovatsion texnologiyalar – bu zamonaviy ta'limni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan uslub va vositalar tizimi bo'lib, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, ular ongida milliy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda interaktiv metodlar, raqamli platformalar va multimedia vositalari ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsion yondashuvlarning asosiy maqsadi – o'quv jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli, mazmunli va samarali qilishdir.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan "Innovatsion yondashuv", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion pedagogika" tarzidagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning pirovard maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir. O'qitishning an'anaviy yondashuvi ta'limning o'rtacha darajasiga qaratilgan. Muammo shundaki, boshlang'ich sinflarda mavzuning an'anaviy tarzda taqdim etilishi o'quvchilarning o'quv motivlarini so'ndirishga olib keladi. Ular "kerak" deb maktabga borishda davom etadilar. Shu bilan birga, bolalar ota-onalaridan yangi o'yinchoq yoki boshlang'ich maqtovlari uchun yaxshi baho olishga harakat qilishadi. Kichik yoshdagi o'quvchi hali o'yin faoliyatini tark etmaganligini inobatga olib, boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyasi bolalarning asosiy fanlarga qiziqishini oshirishga imkoniyati sifatida qaraladi.

O'yin va o'rganish ikki xil faoliyatdir. Ular orasida sifat jihatidan farqlar mavjud. Boshlang'ich maktabda o'yin texnologiyalarining xususiyatlari fanni o'rganish jarayoni bilan yaqin aloqadadir. O'qituvchi bolalarni qiziqtirishi uchun hamma narsani qilishi kerak. Bunday holda, o'yin darsning bir qismi bo'ladi. Bunday tadbirlarga istisnosiz barcha bolalarni jalb qilish kerak. Shunda o'qituvchi yaxshi natijalarga erisha oladi. Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyasi maqsadi bolalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash hisoblanadi. O'yin texnologiyali mashg'ulotlar jarayonida o'quvchining ijodiy shaxsi shakllanadi, u olgan bilimlarini tizimlashtirish, kelajakda turli masalalarni yechishda ulardan foydalanishni o'rganadi, bolalar faol shaklda jamoada muloqot qilishni o'rganadilar, bolalarning "men"ini shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyasining vazifalari:

- bolalarning mustaqil fikrlash, eng oddiy vazifalarni tashqaridan yordamisiz hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- maktab jamoasidagi har bir o'quvchi tomonidan mavzu bo'yicha materialni to'liq o'zlashtirishiga erishish;
- ta'lim jarayonida bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini asrash.

O'yin texnologiyalarining quyidagi turlari mavjud:

- o'quv o'yini;
- rivojlantiruvchi o'yinlar;
- reproduktiv o'yinlar;
- diagnostik o'yinlar.



Har bir tur o'ziga ma'lum bir vazifani qo'yadi. O'quv o'yini davomida bola ilgari bilmagan ma'lumotlarni bilib oladi. O'yin ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan, bolada yangi qobiliyatlarni ochib berish. Bunday darslarda o'qituvchi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Reprodukativ o'yinlar o'rganilgan materialni mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday darslarda o'qituvchi qayerda bo'shliqlar borligini, bolalar qanday materialni to'liq o'rganmaganligini bilib oladi. Inson o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Shaxsning ma'lum bir faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi.
2. Kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi.
3. Iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishga imkoniyat.
4. Hayotda yuz beradigan qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallaydi.
6. Shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.
7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar o'rganiladi.
8. Jamoa muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

O'quvchilarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. O'yin tarkibiga kiradigan masalalar:

- o'yinning syujeti;
- muayyan rollar, vazifalar;
- rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat, muloqot.

Didaktik maqsadiga ko'ra o'yinlar:

1. Ta'lim-tarbiya beruvchi o'yinlar;
2. Bilimlarni mustahkamlovchi o'yinlar;
3. Bilimlarni nazorat qiluvchi o'yinlar;
4. O'quv materialini takrorlovchi o'yinlar.

Didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qo'yiladigan didaktik talablar:

1. Dasturda qayd etilgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi.
2. Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi.
3. Barkamol inson shaxsini tarbiyalash tamoyillariga, sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi.
4. O'yin strukturasi mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi.
5. Mazkur darslarda didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflagan holda ulkan samaraga erishish kerak.

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'yin texnologiyasining qo'llanilishi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va emosional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya darslarida o'yinlarni ishlatish, bolalarga axloqiy qadriyatlarni, yaxshi va yomonni, to'g'ri va noto'g'ri farqlashni o'rgatishda yordam beradi. O'yinlar nafaqat bolalarning qiziqishini uyg'otadi, balki ular o'zaro aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, hissiy qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishni o'rganishga yordam beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoniga o'yin texnologiyasini joriy etish ijobiy natijalar beradi. Bolalar hatto zerikarli mavzularni ham o'rganishga qiziqishadi, ular yaxshiroq bo'lishga, maqtovga sazovor bo'lishga intiladi. Bundan tashqari, o'yin sizga bolaning shaxsiyatini ochib berishga, oilada yaratilgan komplekslarni olib tashlashga imkon beradi. Musobaqa va rolli o'yinlar jarayonida o'quvchilar sinfdoshlariga o'z qobiliyatlarini namoyish etadilar va shu bilan ularning ko'z o'ngida ko'tariladi. Yil boshida o'quv dasturini ishlab chiqish bosqichida o'yinlarni o'tkazish haqida o'ylash kerak. Bu rolli o'yinlar va turli xil musobaqalar bo'lishi kerak. Bunday mashg'ulotlar umumiy o'qish vaqtining kamida 20% ni tashkil qilishi kerak. Natijada bilimlarni mustahkam o'zlashtirish va maktabda keyingi o'qish uchun motivatsiyani shakllantirish bo'ladi.


XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarda tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar tarbiya darslarida o'quvchilarning qiziqishini o'stiruvchi vositalardan hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarni dars jarayoniga qo'llashdan maqsad o'quvchilarning fanga, ta'lim olishga, kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishdir. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarga axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishda, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishda, hamda ularni interaktiv va qiziqarli tarzda tarbiyalashda juda samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali bolalar o'zaro muloqot qilishni, to'g'ri qarorlar qabul qilishni va jamiyatda hurmatli fuqarolar bo'lishni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, Sh. (2023). Umumiy pedagogika (O'quv qo'llanma). Toshkent: O'qituvchi, 430 b.
2. Farsaxonova, D. R. (2022). Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. Toshkent: "Fan ziyosi", 132 b.
3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. (2019). Vazirlar Mahkamasining 31-dekabrda 1059-son qarori.
4. Abdullayeva, B., Xoliqov, A., Farsaxonova, D., & b. (2021). Umumiy pedagogika. Innovatsiya-Ziyo MCHJ matbaa bo'limi, T.
5. Farsaxonova, D. (2022). Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi. Наука и инновации, 1(B7), 919-925.
6. Lutfullayeva, R. O., & Farsaxonova, D. R. (2024). Boshlang'ich sinflarda BBB texnologiyasini qo'llashning afzalliklari. IQRO INDEXING, 8(2 (2)), 32-34.
7. Farsaxonova, D. R. (2009). The technology of spiritual and moral education of students (Teaching guide). Toshkent, 104 b.
8. Farsaxonova, D. (2021). Formirovaniye i razvitie kreativnosti detey v nachalnykh klassakh. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, 2(3).
9. Farsaxonova, D. (2021). Kichik maktab yoshlardagi o'quvchilarda milliy g'oya tuyg'usini shakllantirishning multimedia asoslari. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar, 2(3).
10. Farsaxonova, D. (2020). Mechanisms of spiritual and moral education of students of pedagogical higher education institutions. Archiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
11. Farsaxonova, D. R. (2019). Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi. Ta'lim, fan va innovatsiya, 1, 77-81.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.